

UDC: 349.6

## O'SIMLIK DUNYOSIGA OID QONUNCHILIKNI BUZGANLIK UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA

**Mahkamov Durbek Ne'matovich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
dotsenti, yuridik fanlar nomzodi  
ORCID: 0000-0002-6918-4616  
e-mail: durbek404@mail.ru

**Annotatsiya.** Maqolada o'simlik dunyosi muhofazasi va unga nisbatan yetkazilgan zarar natijasida qo'llaniladigan jinoiy javobgarlik masalalari yoritilgan. Tabiiy resurslardan biri bo'lgan o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishning ekologik-huquqiy maqomi, yuridik javobgarlik, jinoiy javobgarlik, ekologik jinoyat, o'simlik dunyosiga oid qonunchilikni buzganlik uchun jinoiy javobgarlikni ifodalovchi normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, ularning tartibga solish qamrovi, olimlar tomonidan bildirilgan ilmiy-nazariy fikrlar, tahliliy ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, jinoyat obyekti sifatida o'simlik dunyosi va o'rmonlarning o'zaro huquqiy holati yuzasidan fikrlar bildirilgan. Shu bilan birga, mavjud qonunchilik normalarini takomillashtirish, sohani rivojlantirish, yangi mexanizmlar, ilmiy-nazariy institutlar to'g'risida fikrlar bildirilgan. Xorijiy mamlakatlarning o'simlik dunyosi muhofazasi, qonunchilikni buzganlik uchun jinoiy javobgarlikning aks etishi va qo'llanilishi, o'ziga xos xususiyatlari ham bayon etilgan. Xulosa qismida xorijiy davlatlarning ijobiy tajribasini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirishga xizmat qilishda qo'llash masalalariga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** o'simlik dunyosi, ekologik jinoyat, o'rmon, jinoiy javobgarlik, flora, ekotsid, o'simlik dunyosiga zarar yetkazish.

## УГОЛОВНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА НАРУШЕНИЕ РАСТИТЕЛЬНОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА: НАЦИОНАЛЬНЫЙ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

**Махкамов Дурбек Нематович,**  
кандидат юридических наук, доцент  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В статье описываются вопросы охраны растительного мира и уголовной ответственности за причиненный ущерб. Кроме того, представлены положения об эколого-правовых статусах охраны и использования растительного мира как одного из природных ресурсов, анализ нормативно-правовых актов, предусматривающих уголовную ответственность за экологические преступления, нарушение законодательства о растительном мире, приведены научно-теоретические выводы и аналитические данные. Также были высказаны мнения о правовом статусе растительного мира и лесов как объектов преступления. При этом были высказаны мнения и научно-теоретические взгляды о совершенствовании действующего законодательства, развитии отрасли, создании новых механизмов. Приведен опыт охраны растительного мира, отражение в законодательстве и применение уголовной ответственности за правонарушения, а также ее особенности в зарубежных странах. В заключении делается акцент на применении положительного опыта зарубежных стран при совершенствовании законодательства Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** растительный мир, экологическое преступление, лес, уголовная ответственность, экоцид, вред растительному миру.

## CRIMINAL RESPONSIBILITY FOR VIOLATION OF PLANTS LEGISLATION: NATIONAL AND FOREIGN EXPERIENCE

**Makhkamov Durbek Nematovich,**

Assistant professor of  
Tashkent State University of Law, PhD

**Abstract.** The article describes the issues of flora protection and criminal liability for the damage caused. In addition, ideas about the environmental and legal statuses of the protection and use of the flora as one of the natural resources are presented, an analysis of legal acts providing for criminal liability, environmental crime, violation of the legislation on the flora, their regulatory sphere, scientific and theoretical conclusions, analytical data. Opinions were also expressed on the legal status of flora and forests as objects of crime. At the same time, opinions were expressed on the improvement of the current legislation, the development of the industry, new mechanisms, scientific and theoretical views. The protection of the flora of foreign countries, the reflection and application of criminal liability for offenses, as well as their features are described. In conclusion, emphasis is placed on the application of the positive experience of foreign countries in improving the legislation of the Republic of Uzbekistan.

**Keywords:** flora, ecological crime, forest, criminal liability, ecocide, harm to the flora.

### Kirish

Ekologik xurujlar avj olgan sharoitda o'simlik dunyosi kabi bebaho tabiat boyligini asrab-avaylash va tabiiy genofondni ke-lajak avlodga sof tarzda qoldirish nafaqat davlatimiz, balki xalqaro hamjamiyat oldida turgan ustuvor vazifaga aylanmog'i lozim. Zotan, o'simlik dunyosini muhofaza qilish mexanizmini takomillashtirish va tashkil etish bu kabi o'ta salbiy holatlarning oldini olishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi tabiiy. Bu boradagi ekologik jinoyatlarning avj olishini to'xtatish oldimizda turgan muhim masalalardan biridir.

Ekologiya sohasidagi jinoyatchilik salbiy oqibatlarining og'irligi jihatidan, o'zining demografik, ekologik, ijtimoiy xususiyatlari bo'yicha millatlar xavfsizligiga real xavf tug'dirishining aniqligi jihatidan g'oyat jiddiy xavf tug'diruvchi hodisa bo'lib qolmoqda. Bu yana insonning o'rtacha yashash muddatining kamayishi, turli kasalliklar, o'lim hodisalarining ko'payib ketishi, aholi genofondining salbiy mutatsiyasiga sabab bo'lmoqda. Natijada ekologik halokat va ekologik xavf-

li zonalar paydo bo'lmoqda va tabiiy resurslarning (tuproq, baliq, o'rmon va boshqalar) degradatsiyasi yuzaga kelmoqda.

### Material va metodlar

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda ilmiy bilishning mantiqiy va ilmiy uslublaridan foydalanilgan, xususan, mantiqiy tahlil, tarixiy, qiyosiy-huquqiy kabi uslublar qo'llanilgan. Bundan tashqari, empirik materiallar, xususan, statistika ma'lumotlari, xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyoti tahlil qilindi.

### Tadqiqot natijalari

Bu borada olimlar tomonidan ko'pgina ilmiy-nazariy qarashlar bildirilgan va tadqiqotlar o'tkazilgan.

Sh.R. Qobilov ta'kidlaganidek, "ekologik jinoyat – atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan qonun normalarini buzuvchi, ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra eng og'ir g'ayrihuquqiy xatti-harakat yoki harakatsizlikdir" [1].

M.M. Nurmatovning fikricha, ekologik jinoyat – bu jinoyat qonunida ko'zda tutilgan hamda jazo qo'llash tahdidi bi-

lan taqiqlangan oqilona foydalanilishi va muhofaza etilishi insonning barqaror hayot kechirishini ta'minlovchi atrof tabiiy muhit va uning alohida unsurlari, shuningdek, aholi va hudud ekologik xavfsizligiga tajovuz qiluvchi hamda tabiiy obyektlardan huquqqa xilof ravishda foydalanish oqibatida atrof tabiiy muhit holati va sifatida salbiy o'zgarishlarga olib keluvchi aybli ijtimoiy xavfli qilmish (xatti-harakat yoki harakatsizlik) [2].

Bevosita o'simlik dunyosi obyektlariga nisbatan jinoiy javobgarlik o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu borada huquqshunos olim M.X. Rustamboyev "o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish jinoyatining ijtimoiy xavfliligi shundaki, ov qilish, baliq tutish qoidalarining buzilishi yoki hayvonot dunyosining boshqa, shu jumladan, noyob turlarini ovlash, shuningdek, ulardan foydalanish hayvon, qush va baliqlarning qirilib ketishi, hayvonlarning noyob turlari yo'q bo'lib ketishi va tabiatda ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lib, shuning uchun sharhlanayotgan modda maqsadi hayvonot va o'simliklar dunyosini jinoyat-huquqiy vositalar yordamida asrash va suv bioresurslari populyatsiyalarining (hayvon va o'simliklarining) saqlanib qolish (omon qolish) shart-sharoitlarini qo'shimcha ravishda ta'minlash, noyob va yo'qolib borayotgan hayvon va o'simlik turlarining yerda hayotning biologik rang-barangligini saqlab qolishga ko'maklashadigan noyob tur va atrof-muhitning asralayotgan obyekti sifatida halok bo'lishining oldini olishdan iborat" [3], deya ta'kidlaydi.

E'tirof etish joizki, o'simlik dunyosini muhofaza qilishning yangi davri boshlanganligini Prezidentimizning so'nggi ikki yilda davlat ekologik siyosatining ustuvor yo'nalishi aynan o'simliklarni muhofaza qilish, xususan, daraxtlarni kesishga moratoriy joriy etish, javobgarlikni kuchaytirish kabi masalalarga e'tibor berganligidan ko'rishimiz mumkin. Mazkur masalada ham jinoyat

qonunchiligida o'z aksini topishi lozim bo'lgan jihatlar mavjud.

Jumladan, professor J.T. Xolmo'minov ta'kidlaganidek, Jinoyat kodeksida nabotot olami va shifobaxsh o'simliklarni huquqiy muhofaza qilish uchun quyidagi talablarga e'tibor berish zarur [4]:

- yangi qonunlar, jinoyat yoki o'simliklarni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunga asosan, o'simliklardan foydalanish, ularni ekish, sotish, qazib yoki yulib olganlik uchun ma'muriy chora ko'rilgandan keyin jinoiy javobgarlik belgilash kerak;

- jinoiy javobgarlikdan tashqari, ko'proq keltirilgan zararni qoplash bilan bog'liq ma'muriy jazolar qo'llanilishi lozim;

- Jinoyat kodeksida "Qizil kitob"ga kiritilgan o'simliklarni muhofaza qilish maqsadida ularni qazib olish, noto'g'ri foydalanish, kesish va boshqa noqonuniy holatlar uchun jinoiy javobgarlik belgilanishi mumkin;

- o'simliklarni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunga shifobaxsh o'simliklardan foydalanish va ularni muhofaza qilish to'g'risida alohida bob kiritish, aniq holatlarni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilanishi zarur;

- ko'proq dorivor va shifobaxsh o'simliklardan noto'g'ri foydalanganlik va ular to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun iqtisodiy-huquqiy javobgarlik belgilash o'rinlidir.

#### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Demak, o'simlik dunyosini muhofaza qilishga oid qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq huquqbuzarliklar ekologik huquqiy tartibotga tajovuz qilib, o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish sohasida belgilangan munosabatlarga zarar yetkazadi yoxud real zarar yetkazish xavfini keltirib chiqaradi. Bizningcha, aynan shifobaxsh o'simliklarni ekologik-huquqiy muhofaza qilish borasida alohida modda bo'lmagani tufayli ham keyingi paytlarda ko'plab noyob o'simliklarning turlari yo'qolib ketmoqda.

Yana bir e'tibor berish kerak bo'lgan masala jinoyat obyekti masalasidir. Xususan,

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 198-, 199-, 201-, 202-moddalarida "o'simlik", "o'simlik dunyosi", "xo'jalik faoliyatidagi o'simliklar", "qishloq xo'jaligi o'simliklari" kabi tushunchalar qo'llanilgan bo'lib, ular tabiiy, yovvoyi tarzda, qishloq xo'jaligi o'simliklari, sun'iy sharoitda yetishtirilgan o'simliklarni ifodalagan. Bu moddalarining barchasi "Ekologiya sohasidagi jinoyatlar" nomli bo'limda aks etgan. Fuqarolik va ekologik qonunchilik hujjatlarida esa tabiiy va sun'iy sharoitdagi o'simliklar, yovvoyi va qishloq xo'jaligi o'simliklarining huquqiy maqomi ajratilgan va tartibga solish mexanizmi bir-biridan tubdan farq qiladi. O'z-o'zidan anglash mumkinki, jinoiy javobgarlikda ularning huquqiy maqomidan ko'ra, yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar va oqibat birlamchi o'rinda. Shu jihatdan olib qaraganda, jinoyat qonunchiligi bilan o'simlik dunyosiga oid munosabatlarni tartibga soluvchi ekologik va fuqarolik (mulkiy masalalar) qonunchiligini o'zaro muvofiqlashtirish zarur.

Ushbu mulohazalarimizni xorijiy davlatlar tajribasi bilan solishtirishimiz mumkin. Masalan, Rossiya Federatsiyasi (keyingi o'rinlarda RF) qonunchiligi doirasida mahalliy olimlarning nazariy qarashi shundan iboratki, "o'simlik dunyosi" tushunchasini ta'riflashda o'simliklarni huquqiy muhofaza obyekti sifatida yovvoyi va madaniy (qishloq xo'jaligi) o'simliklarga bo'lishdan voz kechish kerak. Bu yerda gap o'simlik dunyosi majmuasini tashkil qiladigan rang-barang obyektlar uchun turli huquqiy tartiblarni belgilashdan voz kechish xususida emas, balki ularning huquqiy muhofazasi, jumladan, huquqiy javobgarlik choralari belgilashda ahamiyat kasb etadigan umumiy xususiyatlarini aks ettirish to'g'risida bormoqda. RF Jinoyat kodeksi 249-moddasi ning ikkinchi qismida ko'rsatilgan hamda o'simlik zararkunandalari va kasalliklariga qarshi kurashish (og'ir oqibatlarga olib kelinganda) qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik me'yorlari va xuddi shunday ma'mu-

riy-huquqiy taqiqlar me'yorlari yuqoridagi fikrimizning yaqqol misoli bo'lib xizmat qilishi mumkin. Qonun chiqaruvchi qaysi turdagi o'simliklarga nisbatan tajovuz qilinishi, uning oqibati namoyon bo'ladigan sohalarni aniq belgilamagan, faqatgina qishloq xo'jaligi yoki o'rmon xo'jaligi sifatida qayd qilish bilan cheklangan. Bu ta'rif birdaniga hamma o'simliklarni muhofaza qilish doirasida qamrab olish istagidan dalolat beradi. Moddaga berilgan sharhlarda masalaga bu tarzda yondashish, masalan, epifitotiyaning yuzaga kelishi, ya'ni o'simlik yuqumli kasalliklarining muayyan mintaq, mamlakat, bir necha mamlakatlarni qamrab olishi kabi oqibatlar misolida asoslashga harakat qilingan. Shu asoratlar bilan bir qatorda, inson salomatligiga zarar yetkazish, hayvonlarning qirilib ketishi yoki kasallanishi, bog'dorchilik va boshqa maqsadlarda foydalaniladigan qishloq xo'jaligi yerlarining muomaladan chiqishi, hosilning nobud bo'lishi ortidan moddiy zarar yetishi, kasallik o'chog'i, oqibatlarni bartaraf qilish bilan bog'liq xarajatlar qilinishi va boshqalar sanab o'tilgan [5].

MDH mamlakatlari qonunchiligining aksariyatida o'simlik dunyosi tarkibiy qismlariga tajovuz qiladigan ekologik jinoyat va huquqbuzarliklar mohiyatini o'rganishda tajovuz va xatti-harakat predmetini ifodalash uchun turli-tuman, jumladan, o'simlik dunyosi, o'rmonlar, o'rmon plantatsiyalari, daraxtlar, taqiqlangan o'simlik turlarini (giyohvand moddali yoki zaharli) kesish, yo'q qilish, zarar yetkazish, tayyorlash, yig'ish, ishlab chiqarish va hokazo atamalardan foydalaniladi. Ular jinoiy-huquqiy va ma'muriy-huquqiy himoyaga muhtoj o'simlik dunyosi tarkibiy qismlarini to'la qamrab oladi.

Xalqaro qonunchilik hujjatlari tahlili o'simlik dunyosining hamma tarkibiy qismlari ham huquqiy muhofaza bilan qamrab olinmaganini ko'rsatmoqda. O'zbekiston va boshqa MDH mamlakatlari qonunchiligida



bo'lgani kabi asosiy e'tibor qishloq xo'jaligi o'simliklari, o'rmonlar, daraxtlar, kamyob va yo'qolib borayotgan o'simliklarning fitoxavfsizligiga qaratilgan.

Mazkur holatni xalqaro kelishuvlar, jumladan, uyushgan jinoyatchilik, terrorizm, noqonuniy savdo-sotiq va boshqa noekologik maqsadlarga qarshi kurashga qaratilgan hujjatlarga qo'shimchalar kiritish, o'simlik dunyosini muhofaza qilish ehtiyojini inobatga olish yuzasidan tavsiyalar berish orqali ijobiy tomonga o'zgartirish mumkin.

Xorijiy mamlakatlarning tegishli normativ-huquqiy hujjatlarida o'simlik dunyosiga oid qismlarida (xoriyda – flora) muayyan jinoyatlar tarkibining batafsil ta'riflari berilgan, javobgarlikning differensiyalangan choralari, turli malakaviy holat va oqibatlar nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, ekologik talablarni buzganlik uchun jinoiy javobgarlik choralari kodifikatsiyalashgan yoki (faqat) maxsus ekologik, tabiatni muhofaza qilish, hatto xo'jalik yuritish faoliyati qonunchiligi (ular doimo ham qonun maqomida bo'lavermaydi) asosida belgilanadi. Huquq manbalarining ko'pligi esa ularning tahlilini qiyinlashtiradi. Quyida esa o'simlik dunyosiga tajovuz qiluvchi jinoiy javobgarlikni tartibga solish sohasida yaqqol ko'zga ko'ringan tendensiyalar yoki xususiyatlar to'g'risida fikr yuritishimiz mumkin. Avstriya [6], Belarus [7], Bolgariya [8], Germaniya [9], Gollandiya [10], Ispaniya [11], Xitoy [12], Latviya [13], Polsha [14], Tunis [15], Tailand [15], Ukraina [16], Shveysariya [17], Yaponiya [19] va boshqa qator davlatlar jinoyat kodekslarida [20] mavjud jinoiy-huquqiy taqiqlar tahlili milliy qonunchilikning atrof-muhitni muhofaza qilish masalasiga jinoyat to'g'risidagi qonunlar vositalari yordamida ko'proq e'tibor qaratayotganini ko'rsatdi. Ko'pgina davlatlarda jinoiy-ekologik qonunchilik islohoti o'tkazilib, ekologiya sohasiga qarshi jinoyatlar to'g'risida maxsus boblar shakllantirildi,

moddalar ta'rifi o'zgartirildi yoki sanksiyalar kuchaytirildi. Islohotlarning asosiy natijalari (ayrim istisnolarni nazarda tutmaganda) xavfli moddalar va chiqindilar bilan muomala qilish tartibini buzish, atrof-muhitni ifloslantirish kabi zamonaviy sharoitlarda katta ijtimoiy xavf sanaladigan holatlar uchun jinoiy javobgarlikni belgilash va kuchaytirishda namoyon bo'ldi [21].

Jinoiy-huquqiy taqiqlar mazmuni va o'simlik dunyosiga tajovuz qilish bilan bog'liq taqiqlar, odatda, atrof-muhitga qarshi jinoyatlar to'g'risidagi maxsus bo'limga joylashtirilgan (Belarus Jinoyat kodeksi, Latviya Jinoyat kodeksi, Germaniya Jinoyat kodeksi, Polsha Respublikasi Jinoyat kodeksi va b.) Faqatgina Ispaniya Jinoyat kodeksi flora va fauna muhofazasi bilan bog'liq jinoyatlarni alohida bo'limda birlashtirgan (IV bo'lim, XVI bob. "Hududlarni boshqarish va tarixiy meros va atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq jinoyatlar to'g'risida"). Masalan, 332-moddada "Kimki xavf ostidagi yoki ko'payadigan har qanday o'simliklar yoki o'simlik osti turlarini qo'psa, kesib tashlasa, sug'urib olsa, yig'sa yoki noqonuniy savdosi bi i." Nazarimizda, bu jinoyat to'g'risidagi qonunchilikka ekologik yondashuvni lan shug'ullansa yoki ular tarqalgan zonani buzsa yoki og'ir shikast yetkazsa, olti oydan ikki yilgacha muddatga qamoqqa olish yoki oylik ish haqining sakkiz baravaridan yigirma to'rt baravarigacha jarima bilan jazolanad amalga oshirishning ahamiyatli va muhim misoli bo'lib, faqatgina Ispaniya Jinoyat kodeksi boshqa obyektlar bilan bir qatorda ekologik munozanatni muhofaza qiladi.

Aksariyat jinoyat kodekslarida tajovuz obyektlari sifatida ikki toifa – o'rmonlar (daraxtlar) va o'simliklar keltirilgan. Lekin ayrim davlatlar, masalan, XXR Jinoyat kodeksida tajovuz predmeti belgilari o'rmon turlari qiymatidan kelib chiqib farqlanadi. Misol uchun, 334-moddaga ko'ra, O'rmonlar to'g'risidagi qonunga rioya qilmasdan ruxsatsiz kesish, o'rmonning noyob turlarini nobud qilish uch yilgacha muddatga ozod-

likdan mahrum qilish yoki nazorat va jarima bilan jazolanadi, og'irlashtiradigan holatlarda esa bu harakatlar uchun besh yildan yetti yilgacha muddatga ozodlik mahrum qilish va jarima belgilanadi.

O'rmon tajovuz obyekti sifatida Germaniya, Latviya va boshqa mamlakatlar Jinoyat kodeksida qayd qilingan. Masalan, Germaniya Jinoyat kodeksining 329-moddasi 5-qismida alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlardagi o'rmonlarda ildiz, to'nka kavlash uchun javobgarlik belgilangan. Latviya Jinoyat kodeksida ham bir qator taqiqlar nazarda tutilgan.

Lekin xalqaro va xorijiy qonunchilik tahlili o'simlik dunyosi obyektlarining huquqiy muhofazaga muhtoj turlarining hammasi ham jinoiy va huquqiy javobgarlik me'yorlari bilan to'la qamrab olinmaganini ko'rsatdi. Qonunchilik yangi tahdidlarga doimo ham zudlik bilan munosabat bildirmaydi, ularning xavflilik darajasini xolis baholay olmaydi (masalan, ekologik muvozanatning buzilishi, begona turlar, jumladan, geni o'zgartirilgan organizmlarning kirib kelishi yoki ekotsid deb ataladigan jinoyat shular jumlasidandir).

### Xulosalar

Tahlillardan xulosa qilish mumkinki, muhofaza qilinadigan obyektlar ro'yxatini kengaytirish, o'simliklarni muhofaza qilish to'g'risidagi Xalqaro konvensiyalar qoidalarini modernizatsiya qilish, o'simlik dunyosi obyektlariga tajovuz qilganlik uchun belgilangan jinoiy-huquqiy va ma'muriy-huquqiy taqiqlar va sanksiyalarni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunchiligining ayrim moddalarida aynan o'simlik dunyosi obyektlari atrof tabiiy muhitning tarkibiy qismi sifatida inobatga olinmaganini ko'rsatmoqda. Chunonchi, Jinoyat kodeksining atrof tabiiy muhitni ifloslantirish deb nomlangan 196-moddasida yerlarni ifloslantirish yoki

buzish, suv yoki atmosfera havosini ifloslantirish, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi to'g'risida so'z boradi. Vaholanki, o'simlik dunyosi obyektlari ham atrof tabiiy muhitning tarkibiy qismi va ajralmas bo'g'ini hisoblanadi. Modda nomlanishining tarkibiga muvofiqligini ta'minlash maqsadida 196-moddasi dispozitsiyasini *"o'simlik dunyosi obyektlarining nobud bo'lishi"* degan tahrirdagi jumla bilan to'ldirish maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, tegishli moddalarda zarar yetkazishning barcha holatlarida o'simlik dunyosi tarkibiy qismlariga yetkazilgan zararlar hisobini ko'rsatish kerak.

Eng muhim muammolardan yana biri suv o'simliklari muhofazasiga oid normalar mavjud emasligidadir. Bu nafaqat jinoyat qonunchiligi, balki ekologik qonunchilikda ham aks etmagan. Masalan, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat Kodeksining 256-moddasida suv o'simliklari muhofazasiga oid norma mavjud. Birinchi navbatda, tabiat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning e'tiborini o'simlik dunyosiga nisbatan jinoiy-huquqiy taqiqlarning mazmun va mohiyatiga qaratgan holda, jinoyat to'g'risidagi qonunchilikning preventiv rolini oshirish zarur. Mavjud taqiqlarni takomillashtirishga esa, nazarimizda, o'simlik dunyosiga zarar yetkazish holatini vujudga keltirganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilash muhimdir. O'simlik dunyosi, uning obyektlari va tarkibiy qismlariga tajovuz qilingani uchun tayinlanadigan ma'muriy javobgarlikni huquqiy jihatdan tartibga solishga nisbatan ham xuddi shunday fikrlarni aytish mumkin.

Shuning uchun O'zbekiston Respublikasining "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonunga jinoiy va ma'muriy javobgarlik choralarini qo'llashga olib keladigan taqiq turlarini markazlashtirishga oid qo'shimcha kiritish maqsadga muvofiq.

## REFERENCES

1. Qobilov Sh.R. Ekologiya qonunchiligini buzganlik uchun yuridik javobgarlikni takomillashtirish muammolari [Problems of improving legal liability for violations of environmental legislation]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, TSIL, 2002, p. 9.
2. Nurmatov M.M. Ekologik-huquqiy javobgarlik [Environmental liability]. Ed. Sh.Kh. Fayziev. Tashkent, TSIL, 2010, p. 60.
3. Rustamboyev M.KH. Kurs ugolovnogo prava Respubliki Uzbekistan [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Special part. Crimes in the sphere of economy. Crimes in the field of ecology. Crimes against the order of functioning of authorities, administration and public associations. Tashkent, TSIL, 2008, vol. 4, p. 272.
4. Xolmo'minov J.T. Tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilishning ekologik-huquqiy muammolari [Environmental and legal issues of use and protection of natural resources]. Ed. R.J. Roziev. Tashkent, Institute of Philosophy and Law, 2009, p. 210.
5. Uchebno-prakticheskiy kommentariy k Ugolovnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii [Educational and practical commentary on the Criminal Code of the Russian Federation]. Ed. A.E. Zhalinsky. 2nd ed. Moscow, Eksmo, 2006, p. 770.
6. Ugolovnyy kodeks Avstrii [Austrian Criminal Code]. Transl. A.V. Serebrennikova. Moscow, MAKSPress, 2001.
7. Ugolovnyy kodeks Respubliki Belarus' [Criminal Code of the Republic of Belarus]. St. Petersburg, Legal Center Press, 2001.
8. Ugolovnyy kodeks Bolgarii [Criminal Code of Bulgaria]. SIBI, 2006.
9. STGB. 42 ed., Munich, Beck, 2007.
10. Ugolovnyy kodeks Gollandii [Dutch criminal code]. Transl. I.V. Mironova, 2nd ed. St. Petersburg, Legal Center Press, 2001.
11. Ugolovnyy kodeks Ispanii [Spanish Criminal Code]. Ed. N.F. Kuznetsova, F.M. Reshetnikov. Moscow, Zertsalo, 1998.
12. Ugolovnyy kodeks Kitayskoy Narodnoy Respubliki [Criminal Code of the People's Republic of China]. Ed. A.I. Korobeeva, transl. D.V. Vichikov. St. Petersburg, Legal Center Press, 2001.
13. Ugolovnyy zakon [Criminal law]. Riga, Biznesa informacijas birojs Publ., 2000.
14. Kama code with an introduction. 20 ed. Warsaw, C.H. Beck, 2005.
15. Ugolovnyy kodeks Tunisa [Tunisian criminal code]. Transl. V.A. Burkovskaya. Moscow, Institute of Legal and Comparative Studies, 2005.
16. Ugolovnyy kodeks Tailanda [Thai Penal Code]. Transl. A. Chetsumona. St. Petersburg, Legal Center Press, 2005.
17. Ugolovnyy kodeks Ukrainy [Criminal Code of Ukraine]. St. Petersburg, Legal Center Press, 2001.
18. Ugolovnyy kodeks Shveytsarii [Swiss Criminal Code]. Transl. A.V. Serebrennikova. Moscow, Zertsalo Publ., 2000.
19. Ugolovnyy kodeks Yaponii [Japanese Criminal Code]. Transl. V.N. Eremin. St. Petersburg, Legal Center Press, 2002.
20. Ugolovnoye pravo [Criminal law]. Bibliography (1985-2006). Ed. A.E. Zhalinsky. Moscow, Gorodets Publ., 2007, pp. 560-564.
21. Dubovik O.L. Ugolovno-pravovaya okhrana okruzhayushchey sredy v FRG. Ekologicheskoye pravo i rynek [Criminal legal protection of the environment in Germany. Environmental law and the market]. Ed. M.M. Brinchuk, O.L. Dubovik. Moscow, INION – IGL RAN, 1994, pp. 229-236.
22. Reforma zakonodatel'stva ob otvetstvennosti za ekologicheskiye prestupleniya v Rossii i za rubezhom [Reform of legislation on liability for environmental crimes in Russia and abroad]. Ecological law of Russia. Proceedings of scientific-practical conferences. In 3 vols. Anniversary issue 1995-2004. Ed. A.K. Golichenkov. Moscow, TISSO, 2004, vol. 2, pp. 195-198.

23. Karkhu O.S. Analiz ugolovnogo zakonodatel'stva v sfere ekologicheskoy informatsii v zarubezhnykh stranakh [Analysis of criminal legislation in the field of environmental information in foreign countries]. Ecological law of Russia. Proceedings of scientific-practical conferences. In 3 vols. Anniversary issue 1995-2004. Ed. A.K. Golichenkov. Moscow, TISSO, 2004, vol. 2, pp. 310-315.

24. Kuznetsova O.N. Ugolovnaya otvetstvennost' za zagryazneniye atmosfery po zakonodatel'stvu zarubezhnykh gosudarstv [Criminal liability for air pollution under the laws of foreign countries]. Ecological law of Russia. Proceedings of scientific-practical conferences. In 3 vols. Anniversary issue 1995-2004. Ed. A.K. Golichenkov. Moscow, TISSO, 2004, vol. 2, pp. 329-331.

25. Radchik O.L. Ugolovnaya otvetstvennost' za prestupleniya v oblasti obrashcheniya s opasnymi veshchestvami i otkhodami po zakonodatel'stvu zarubezhnykh gosudarstv [Criminal liability for crimes in the field of handling hazardous substances and wastes under the laws of foreign countries]. Ecological law of Russia. Proceedings of scientific-practical conferences. In 3 vols. Anniversary issue 1995-2004. Ed. A.K. Golichenkov. Moscow, TISSO, 2004, vol. 2, pp. 349-351.

26. Radetskiy V. Razvitiye ugolovno-ekologicheskogo prava v Pol'she s uchetom trebovaniy Yevropeyskoy konventsii ob okhrane okruzhayushchey sredy ugolovnym pravom [The development of criminal environmental law in Poland, taking into account the requirements of the European Convention on Environmental Protection by criminal law]. *State and law*, 2002, no. 10, pp. 48-56.

27. Shunemann B. Ugolovnoye zakonodatel'stvo v postmodernistskom obshchestve, printsipy, kasayushchiyesya ekologicheskogo prava (na primere FRG i SSHA) [Criminal legislation in a postmodern society, principles relating to environmental law (on example of the Germany and USA)]. *Environmental law*, 2003, no. 2, pp. 48-54.



UDC: 349.6

## FERMER XO'JALIKLARINING SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA EKOLOGIK NAZORATNING HUQUQIY AHAMIYATI

**Shofiyev Zoir Shoniyoovich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
mustaqil izlanuvchisi  
ORCID: 0000-0001-8838-3891  
e-mail: zoirshofiev.72@mail.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada fermer xo'jaliklari tomonidan suv resurslaridan oqilona foydalanish sohasidagi davlat va jamoat ekologik nazoratining mazmuni va huquqiy ahamiyati o'rganilgan. Muallif ekologiya nazoratini takomillashtirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatib o'tgan. Shu ma'noda ekologik nazorat tabiatdan oqilona foydalanish va atrof-muhitga zararli ta'sirlarni kamaytirishni ta'minlashga qaratilgan. Fermer xo'jaliklarining suv va suv resurslaridan foydalanish hamda uni muhofaza qilish ustidan mahalliy davlat hokimiyati organlari, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmuyi ustidan nazorat qilish inspeksiyasi, Suv xo'jaligi vazirligi qonunchilikda belgilangan tartibda davlat nazoratini amalga oshirishi ilgari surilgan. Bunda fermer xo'jaliklarining suv resurslaridan foydalanish sohasida ekologik nazoratning davlat va jamoat ekologik nazorat turlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, MDH davlatlari olimlari fermer xo'jaliklarining suv resurslaridan foydalanish sohasida ekologik nazoratning taklif va tavsiyalari bayon etilgan. Muallif ushbu maqolada "ekologik nazorat to'g'risida" hamda "jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunlarda fermer xo'jaliklarining suv resurslaridan foydalanish sohasida ekologik va jamoat nazoratining o'rnini belgilab bergan.

**Kalit so'zlar:** fermer xo'jaligi, suv resurslari, dehqon xo'jaligi, suv iste'molchilari, tabiat obyektlari, suvdan foydalanuvchilar, davlat nazorati, ekologik nazorat, jamoat nazorati.

### ПРАВОВОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО КОНТРОЛЯ В СФЕРЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ ФЕРМЕРСКИМИ ХОЗЯЙСТВАМИ

**Шофиев Зоир Шониёзович,**  
самостоятельный соискатель  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье исследуются содержание и правовое значение государственного и общественного экологического контроля в области рационального использования водных ресурсов фермерскими хозяйствами. Автор подчеркивает значение указов и постановлений Президента Республики Узбекистан в совершенствовании экологического контроля. В этом смысле экологический контроль был направлен на обеспечение рационального природопользования и снижение вредного воздействия на окружающую среду. Государственный контроль за использованием и охраной воды и водных ресурсов фермерских хозяйств должны осуществлять органы местного самоуправления, Государственный комитет Республики Узбекистан по экологии и охране окружающей среды, Инспекция по контролю за агропромышленным комплексом при Кабинете Министров Республики Узбекистан,

Министерство водного хозяйства Республики Узбекистан. Описаны виды государственного и общественного экологического контроля в области водопользования фермерскими хозяйствами. Также представлены предложения и рекомендации по экологическому контролю в области водопользования фермерскими хозяйствами ученых из стран СНГ. В данной статье автор определяет роль эколого-общественного контроля за использованием водных ресурсов фермерскими хозяйствами в соответствии с законами «Об экологическом контроле» и «Об общественном контроле».

**Ключевые слова:** фермерское хозяйство, водные ресурсы, дехканское хозяйство, водоснабжение, природные объекты, гидроэнергетика, государственный контроль, экологический контроль, общественный контроль.

## LEGAL IMPORTANCE OF ENVIRONMENTAL CONTROL IN THE FIELD OF WATER RESOURCES OF FARMS

**Shofiev Zoir Shoniyozovich,**  
Independent Researcher  
of the Tashkent State University of Law

**Abstract.** This article examines the content and legal significance of state and public environmental control in the field of rational use of water resources by farms. The author emphasizes the importance of decrees and resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan in improving environmental control. In this sense, environmental control has focused on ensuring the rational use of nature and the harmful effects on the environment. State control over the use and protection of water and water resources of farms should be carried out by local authorities, the State Committee for Ecology and Environmental Protection, the Inspectorate for Control over the Agro-Industrial Complex under the Cabinet of Ministers, the Ministry of Water Resources. It describes the types of state and public environmental control in the field of water use by farms. Scientists from the CIS countries also presented proposals and recommendations for environmental control in the field of water use by farms. In this article, the author defines the role of environmental and public control in the use of water resources by farms in the laws "On environmental control" and "On public control."

**Keywords:** farming, water resources, agriculture, water consumers, natural objects, water users, state control, environmental control, public control.

### Kirish

O'zbekiston tabiiy boyliklari xalqimizning milliy boyligi bo'lib, u insonlarning turmush farovonligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosini tashkil etadi. Yuridik manbalarda nazorat davlatda qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlashning asosiy usuli, boshqaruvning muhim funksiyasi, davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlash vositasi sifatida ta'riflanadi [1]. Yuridik manbalarda "nazorat" tushunchasining ekologiyaga bog'langanligini "ekologik nazorat", "davlat ekologiya nazorati", "jamoat ekologiya nazorati" va boshqa shu kabi so'z birikmalari bilan ifodalanganini uchratish mumkin [2].

O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 27-dekabrda "Ekologik nazorat to'g'risida"gi O'RQ 363-sonli Qonunining 3-moddasiga ko'ra, "ekologik nazorat atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonunchilik talablari buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo'yish, tabiatni muhofaza qilish faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va jamoatchilik chora-tadbirlari tizimidir". Shuningdek, ekologik nazorat tabiatdan oqilona foydalanishni ta'minlash va atrof-muhitni zararli ta'sirlardan muhofaza qilishning muhim huquqiy chorasini, davlat boshqaruvi va ekologik huquqqa

# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

3 / 2022

**BOSH MUHARRIR:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,  
y.f.d., dotsent

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ikrom Ergashev**

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha  
falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

**Mas'ul muharrir:** D. Xudoynazarov

**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,  
Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Web-sayt:** [www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)

**E-mail:** [lawjournal@tsul.uz](mailto:lawjournal@tsul.uz)

**E-mail:** [tn.tdyu@mail.ru](mailto:tn.tdyu@mail.ru)

**Obuna indeksi:** 1387.

Jurnal 19.07.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 23,28 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 47.

TDYU tipografiyasida chop etildi.